

О‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA TASHKILOTLARINI SOLIQQA TORTISH MA‘MURIYATCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Yaxshilikov Murod Ilxomjon o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot

universiteti 1-bosqich magistranti,

murodyaxshilikov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi O‘zbekistonda sug‘urta tashkilotlarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari o‘rganilgan. Sug‘urta tashkilotlari uchun amaldagi soliq tartib-taomillari, ularga soliq yukining ta‘siri va bu tizimdagi mavjud muammolar tahlil qilinadi. Mualliflar sug‘urta sektorida soliq ma‘murchiligini soddalashtirish va adolatli soliq yukini ta‘minlash orqali sohaning raqobatbardoshligini oshirishni taklif etadilar. Shuningdek, tezisdagi xalqaro tajribalar va zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinib, O‘zbekistonda sug‘urta tashkilotlarini soliqqa tortishning samarali modelini yaratish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tezis soliq siyosatini optimallashtirish orqali sug‘urta sektorining iqtisodiy o‘shishga qo‘shayotgan hissasini kuchaytirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Soliq, sug‘urta, soliqqa tortish, sug‘urta tashkilotlari, soliqqa tortish ma‘muriyatchiligi, soliq yuki, soliq siyosati, sug‘urta mukofoti, sug‘urta badali, foyda.

Sug‘urta tashkilotlarini soliqqa tortish tizimi O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda muhim manbalardan biridir. Soliq siyosatini to‘g‘ri tashkil qilish nafaqat sug‘urta sohasining barqarorligini ta‘minlaydi, balki davlat daromadlarini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, sug‘urta tashkilotlariga nisbatan amaldagi soliq tartib-taomillari ba‘zan murakkab bo‘lib, davlat soliq organlari va soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi muloqotda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada

solliqqa tortishning samaradorligini oshirish va ma'muriy jarayonlarni takomillashtirish masalalari yoritiladi.

Sug'urta tashkiloti daromadlarini sug'urta faoliyatidan olingan daromadlar, investitsiya joylashtiriluvidan olingan daromadlar va sug'urta tashkilotining boshqa daromatlari evaziga shakllantiradi. Sug'urta faoliyatidan olingan daromadlarning asosiy qismi sug'urta shartnomalari bo'yicha undirilgan mukofotlar hisobiga shakllantiriladi. Sug'urtachining investitsiya joylashtirish imkoniyati sug'urta mukofotlari hisobidan yuzaga keladi. Odatda, sug'urta mukofotlari ma'lum vaqt oralig'ida sug'urtachi ixtiyorida bo'lishi davrida amaldagi me'yoriy qoidalarga asoslanib, daromad aktivlariga joylashtirilishi unga investitsiya daromadlarini keltiradi. Sug'urtachining sug'urta xizmatlarini sotuvidan tashqari olgan daromadlari asosan o'z filiallariga ish qog'ozlarini (hisobot blanklari va shu kabilarni) tayyorlab berish, ularning yangi «mahsulot»ini reklama qilish kabilari hisobiga olinadi. Ayrim hollarda ular ijara munosabatlari orqali ham shakllantiriladi.

Sug'urta tashkilotlariga nisbatan amaldagi soliq tizimi asosiy foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, mol-mulk hamda yer soliqlarni o'z ichiga oladi. Davlat soliq organlari tomonidan soliq yig'imlarining to'liq va o'z vaqtida undirilishi asosiy maqsad bo'lsa-da, sug'urta tashkilotlarida soliqqa tortishda ayrim muamolarning borligi sohada ortiqcha ma'muriy yukni keltirib chiqaradi. Bu esa davlat byudjetiga tushumlarning barqarorligini ta'minlashga xalaqit beradi.

Hozirgi kunda sug'urta tashkilotlarini soliqqa tortish ma'muriyatchiligida bir qator muomolar mavjud. Bulardan:

1. Foyda solig'i bo'yicha, bilamizki sug'urta tashkilotlarida foyda solig'i bazasi sug'urta tashkilotlarining umumiy sug'urta mukofotlari, investitsion daromadlari hamda boshqa daromadlaridan, sug'urta qoplamalari va boshqa xarajatlarini chegirib tashlangan qismi hisoblanadi. Buning natijasida ba'zi bir sug'urta tashkilotlari yashirin

iqtisodiyotga yo'l qo'yib, haqiqatdan mavjud bo'lmagan sug'urta qoplamalarini keltirib soliq bazasini kamaytirmoqda.

2. Hamda, 4.02.2020 yildagi PQ-4611-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021-yil 1-yanvardan boshlab, MHXS ya'ni Moliyaviy hisobot xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va 2021-yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlaydi. Bu esa ayni payta soliq o'rganlari ayrim xodimlari uchun bir qancha tushunmovchiliklar olib keladi.

3. Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish uchun sug'urta mukofoti tajribasi, yillik keltirib chiqargan avtotransport hodisalari va yillik jarimalari miqdoridan qa'tiy nazar xamma xaydovchilar uchun bir xil summada ya'ni Toshkent shahardagi haydovchilar uchun 56 000 so'm va boshqa hududlar uchun 40 000 so'm etib belgilanganligi.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda sug'urta tashkilotlariga nisbatan soliq siyosati nisbatan qulay va moslashuvchan. Masalan, Germaniya va Fransiyada sug'urta faoliyatiga maxsus soliq imtiyozlari joriy etilgan bo'lib, ular moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. AQShda esa sug'urta tashkilotlari uchun soliqqa tortishning differensial yondashuvi qo'llaniladi, ya'ni turli sug'urta xizmatlariga alohida soliq stavkalari belgilanadi.

O'zbekistonda sug'urta tashkilotlarini soliqqa tortish ma'muriyatchiligini takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlar taklif etiladi:

1. Sug'urta qoplamalri tizimini raqamlashtirish ya'ni faqatgina sug'urta tashkilotlaridagi ma'lumotlarga tayanib qolmay, mahalla, ichki ishlar va sog'liqni saqlash tashkilotlari bilan soliq organlarida integratsiya mavjud bo'lishi zarur. Bu organlar o'rtasida integratsion dastur yaratilib, soliq organlari sug'urta hodisasi haqida

ma'lumotlar olishi kerak. Bu esa sug'urta tashkilotlarining haqiqatdan sug'urta qoplamalari miqdorini aniqlashda yordam beradi;

2. Moliyaviy hisobot xalqaro standartlariga barcha soliq organlarida tegishli xodimlar yetarli bilim va malakaga ega bo'lmasdan tegishli yuridik shaxslar o'tishi to'g'ri deb bilmayman. Hozirgi vaqta sug'urta tashkilotlari moliyaviy hisobotlarini Milliy standartlarda ham olib borishi;

3. Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish uchun sug'urta mukofoti endigina haydovchilik guvohnomasini olgan inson, ko'p marotaba avtotransport hodisasini keltirib chiqargan inson hamda yo'l harakati qoidalariga amal qilmagan, shu bilan jarimalar miqdori haddan ko'p insonlar va tajribali haydovchi, kam marotaba avtotransport hodisasini keltirib chiqargan, yo'l harakati qoidalariga amal qiladigan haydovchilar o'rtasida farq qilishi ya'ni birinchi toifadagi insonlar uchun sug'urta mukofoti ko'p bo'lishi.

Sug'urta tashkilotlarini soliqqa tortish ma'muriyatchiligi murakkab soha bo'lib, o'ziga xos mulohazalar va qoidalarni o'z ichiga oladi. Moliyaviy xizmatlar sanoatining asosiy ishtirokchilari sifatida sug'urta kompaniyalari boshqa biznes turlariga nisbatan qo'llaniladigan soliq qoidalaridan farq qiladigan aniq soliq qoidalariga duch kelishadi. Sug'urta tashkilotlari uchun soliqqa tortish ma'murchiligining o'ziga xos xususiyatlarini tushunish soha mutaxassislari va siyosatchilar uchun sektorda muvofiqlik va samarali faoliyatni ta'minlash uchun juda muhimdir. Ushbu ishda men sug'urta tashkilotlariga nisbatan qo'llaniladigan soliqqa tortish ma'muriyatchiligining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqdim. Bundan tashqari, men sug'urta tashkilotlarining xatti-harakatlari va faoliyatiga ta'sir qilishda soliqqa tortishning rolini va uning kengroq moliyaviy hamda ijtimoiy manzaraga ta'sirini o'rgandim. Sug'urta tashkilotlariga taalluqli soliqqa tortishning nuanslarini o'rganib chiqib, men ushbu sektorni shakllantiradigan tartibga solish va moliyaviy dinamikani chuqurroq tushunishimiz mumkinligini bildim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. (2021-yil 29 dekabrda o'zgarishlar bilan) <http://www.lex.uz> (normativ - huquqiy baza).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qoshimcha chora tadbirlar" PQ-4611-sonli Qarori.
3. "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi 23.11.2021 yildagi O'RQ-730-sonli O'zbekiston Respublikasining Qonuni.
4. "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 21.04.2008 yildagi O'RQ-155-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 sentabr kuni "O'zbekiston-2030 stretegiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.
6. Jo'rayev A., Safarov G', Meyliev O. Soliq nazariyasi. O'quv qo'llanma. T.: "Iqtisod-moliya", 2019. –324 b.
7. Vahobov A.V., Jo'raev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. T.: « IQTISOD-MOLIYA », 2019 y. -408 b.
8. Д.Рикардо. Сочинения I том. «Начало политической экономии и налогового обложения». Перевод с английского - М. Госполитиздат, с.360 2004 г.
9. Taxation (UK), BPP Learning Media Ltd BPP House, Aldine Place
142–144 Uxbridge Road London W12 8AA, FA 2017